

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATINING TUTGAN O‘RNI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR

X. O. Abdinazarova

PhD, dotsent, QDPI

D. Mo‘minova,

M. Dehqonova

talaba, QDPI

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoatning tutgan o‘rni va keyingi yillardagi asosiy hududiy o‘zgarishlarga e‘tibor qaratilgan. Jumladan, respublikada tashkil etilgan hamda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni va hududiy tarkibi o‘rganilgan hamda xulosalar qilingan.

Kalit so‘zlar: sanoati, tarmoq tarkibi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, hududiy tarkib, sanoat korxonasi, tabiiy resurslar, mehnat resurslari.

РОЛЬ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА И ИЗМЕНЕНИЯ В НЕЙ

Х. О. Абдиназарова – PhD, доцент КГПИ

Д. Муминова, М. Дехканова – студентки КГПИ

Аннотация

В статье основное внимание уделяется роли промышленности в экономике Узбекистана и основным региональным изменениям в последующие годы. В частности, изучено количество и территориальный состав созданных и действующих промышленных предприятий республики и сделаны выводы.

Ключевые слова: промышленность, отраслевая структура, объем производства продукции, региональная структура, промышленное предприятие, природные ресурсы, трудовые ресурсы.



ROLE OF INDUSTRY IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND CHANGES IN IT

Annotation

The article focuses on the role of industry in the economy of Uzbekistan and the main regional changes in subsequent years. In particular, the number and territorial composition of established and operating industrial enterprises in the republic were studied and conclusions were drawn.

Key words: industry, sectoral structure, production volume, regional structure, industrial enterprise, natural resources, labor resources.

Kirish

Keyingi yillarda O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, sanoatni hududiy jihatdan samarali tashkil etishda joyning tabiiy resurs va mineral xomashyo bazasi, demografik salohiyati va mehnat resurslari, ekologik holati kabi mahalliy omillardan kelib chiqib korxonalarni joylashtirish, mehnat resurslaridan unumli foydalanish, mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, mavjud ishlab chiqarish kuchlaridan samarali foydalanishga juda katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillar uchun mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 22-maqсадida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish”[1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sanoatning ta‘sirini aniqlash, uning tarmoq va hududiy tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.


Asosiy qism. Sanoat ishlab chiqarishini nazariy jihatdan o‘rganish amaliy takliflar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Sanoatda fan-texnika taraqqiyotining eng yangi ixtirolari va kashfiyotlari, texnika va texnologiyalari yaratiladi. Ular tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy etiladi. SHuning uchun sanoat muqarrar ravishda xo‘jalikning boshqa tarmoqlarini o‘zining orqasidan ergashtirib boradi. SHunday ekan sanoatni jadal rivojlantirish zarur. Respublika iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarishning texnik, tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish darajasi ko‘p jihatdan sanoat bilan chambarchas bog‘langan.

Mamlakatda sanoat barqaror rivojlanmoqda. Agar 2000 yilda mamlakat yalpi ichki



mahsulotida sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor yo'g'i 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda esa 27,2 foizga yetdi [3, 4, 10]. Sanoat mahsuloti 2000 yilda mlrd. 1888,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2022 yilga kelib 551,1 trln.so'mni tashkil etdi [12].

Sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi sur'ati 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 105,2 foizga teng bo'ldi [12]. Sanoatda 1826,8 ming ishchi-xizmatchi bo'lib, ular iqtisodiyotda band aholi (13520,3 ming kishi)ning 13,6 foizini tashkil etadi [12]. sanoat mahsuloti umumiy o'sishining katta qismini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan sohalar tashkil etdi.



1-rasm. O'zbekistonda tashkil etilgan hamda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni va hududiy tarkibi []



Ma'lumotlarga ko'ra, Bugungi kunda respublikada 98,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 16,8 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,0 % i) Toshkent shahriga, 11,1 mingtasi (11,2 %) Farg'ona viloyatiga, 10,0 mingtasi (10,1 %) Toshkent viloyatiga, 9,9 mingtasi (10,0 %) Andijon viloyatiga va 8,9 mingtasi (9,0 %) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda (1-rasmga qarang).

O'zbekiston sanoatini rivojlantirish maqsadida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2005 yilda 31,6 trln. so'm bo'lsa [26], 2017 yilda 68,4 trln. so'mni tashkil etdi [12]. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida esa 76,4 trln. so'mga teng bo'ldi. Xorijiy investitsiyalar asosida umumiy qiymati 23456 mln. dollarga teng 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda bunyod etilgan "MAN" yuk tashish avtomobillari, "Xorazm avto", "LG" xolodilniklari, "Samarqandkimyo", Dehqonobod kaliyli o'g'itlari, Surg'il tabiiy gaz koni negizida Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'iro't soda zavodi ishlab chiqarishi yo'lga qo'yildi. Jizzax avtomobil zavodi, Jizzax neftni qayta ishlash zavodi jadallik bilan olib borilmoqda. Namanganda "XUNDAY" mikroavtobuslari va kichik klassdagi yuk mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirilmoqda. O'zbekiston sanoatini rivojlantirish maqsadida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2005 yilda 31,6 trln. so'm bo'lsa [12], 2017 yilda 68,4 trln. so'mni tashkil etdi [12]. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida esa 76,4 trln. so'mga teng bo'ldi [12]. Xorijiy investitsiyalar asosida umumiy qiymati 23456 mln. dollarga teng 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda bunyod etilgan "MAN" yuk tashish avtomobillari, "Xorazm avto", "LG" xolodilniklari, "Samarqandkimyo", Dehqonobod kaliyli o'g'itlari, Surg'il tabiiy gaz koni negizida Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'iro't soda zavodi ishlab chiqarishi yo'lga qo'yildi. Jizzax avtomobil zavodi, Jizzax neftni qayta ishlash zavodi jadallik bilan olib borilmoqda. Namanganda "XUNDAY" mikroavtobuslari va kichik klassdagi yuk mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirilmoqda.

Xulosa

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq sanoatda muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Respublika va uning mintaqalarida tarmoqlar tarkibi takomillashtirildi va xo'jalikning yangi sohalariga asos solindi. Ayniqsa, iqtisodiyot lokomativi bo'lgan industrial tarmoqlarning rivojlanishiga ustuvorlik berildi. Shu maqsadda mahalliy va xorijiy sarmoyalar sanoatda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga sarflanib, zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan



korxonalar soni keskin ko‘paydi. Taraqqiy etgan mamlakatlardan zamonaviy texnika va texnologiyalarni olib kelish, qo‘shma korxonalar tashkil etish uchun katta hajmdagi investitsiyalar sarflandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил, 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. ПФ-60-сон. 28.01.2022.
2. Abdinazarova, H. O. "ФАРҒОНА ИҚТИСОДИЙ РАЙОНИДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН КИМЁ САНОАТ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ГЕОГРАФИК ТАВСИФИ." *Экономика и социум* 3-2 (94) (2022): 351-356.
3. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abduvohidova Zumradxon. "Sectoral and Regional Characteristics of the Chemical Industry in Uzbekistan." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.11 (2022): 333-338.
4. Kh, Komilova N., and H. O. Abdinazarova. "The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan." *Экономика и социум* 5-1 (84) (2021): 248-255.
5. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan." *Экономика и социум* 9 (76) (2020): 3-7.
6. Oripovna, A. K. "The Importance of Establishing a Cluster System in Improving the Territorial Structure of the Chemical Industry of Fergana Economic District." *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences* 2.6 (2022): 135-140.
7. Komilova, N. Kh. "Abdinazarova Kh. O. Some theoretical aspects of the development of the chemical industry." *European Science Review Austria Vienna* (2019): 25-27.
8. Abdinazarova H.O. "ФАРҒОНА ИҚТИСОДИЙ РАЙОНИДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН КИМЁ САНОАТ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ГЕОГРАФИК ТАВСИФИ" *Экономика и социум*, no. 3-2 (94), 2022, pp. 351-356.
9. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan. *Экономика и социум*. Электронное периодическое издание Россия, г. Саратов 2020. № 9 (76)." 3-7.



10. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon. "Stages of Development of Uzbekistan Industry and Changes in It." *Eurasian Journal of History, Geography and Economics* 20 (2023): 56-60.
11. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abdinazarov Bunyodjon Khaliqnazarovich. "Application of Non-Standard Test Tasks in Teaching the Subject of "Lower Amu Darya Economic District"." *Eurasian Journal of History, Geography and Economics* 20 (2023): 61-64.
12. O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. 2023 yil.

